

**“TASDIQLANGAN”**

“O’zbekiston ipotekani qayta  
moliyalashtirish kompaniyasi” AJ  
Aksiyadorlarning navbatdan  
tashqari umumiy yigilishining  
2025-yil 20-fevraldagi qarori bilan

**“O’zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” Aksiyadorlik  
jamiyatining**

**“KUZATUV KENGASHI TO’G’RISIDA” GI NIZOMI**

(yangi tahrirda)

**Toshkent – 2025 y.**

## **MUNDARIJA:**

|       |  |   |
|-------|--|---|
| I.    | UMUMIY QOIDALAR .....  | 3 |
| II.   | KUZATUV KENGASHINING VAKOLATLARI .....   | 3 |
| III.  | KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINI SAYLASH, TAYINLASH VA ULARNING<br>VAKOLATLARINI MUDDATDAN OLDIN BEKOR QILISH ..... | 5 |
| IV.   | KUZATUV KENGASHI A'ZOLIGIGA NOMZODLARGA QO'YILADIGAN MALAKA<br>TALABLARI .....                                 | 6 |
| V.    | KUZATUV KENGASHINING RAISI VA UNING O'RINBOSARI .....  | 6 |
| VI.   | KUZATUV KENGASHINING MAJLISI .....   | 6 |
| VII.  | KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING HUQUQLARI VA VAZIFALARI .....  | 8 |
| VIII. | KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI .....   | 9 |
| IX.   | YAKUNIY QOIDALAR .....   | 9 |

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga, boshqa qonun hujjatlariga, "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda – "Jamiyat") Ustaviga, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruva tizimini takomillashtirish Komissiyaning 2015 yil 31 dekabrdagi yig'ilishining 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruva kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan. Mazkur Nizom Jamiyat Kuzatuv kengashining maqomini belgilaydi va uning faoliyatini, a'zolari saylanishini, shuningdek ularning huquq, vazifa va majburiyatlarini tartibga soladi.

2. Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavi bilan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalarini hal qilish bundan mustasno.

3. Kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlash Kuzatuv kengashi raisi tomonidan amalga oshiriladi.

## II. KUZATUV KENGASHI VAKOLATLARI

4. Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- Jamiyat Ijroiya organining Jamiyat rivojlanish strategiyalariga erishish bo'yicha qo'llanilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotini muntazam ravishda tinglab borgan holda, Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 65-moddasi o'n birinchi qismida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno;
- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibini tayyorlash, yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabardor qilish va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok qilish uchun Jamiyat aksiyadorlar reestri tuziladigan sanani belgilash;
- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 59-moddasi birinchi qismi ikkinchi xatboshida nazarda tutilgan masalalarini Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga qaror qabul qilish uchun kiritish;
- Jamiyat mol-mulklarining bozor qiymati belgilanishini tashkillashtirish;
- Jamiyat Ijroiya organini tashkil etish, Bosh ijrochi direktorni saylash (tayinlash), uning vakolatlarini muddatidan oldin bekor qilish;
- Bosh ijrochi direktor lavozimiga tanlov e'lon qilish, tanlov e'lon qilish tartib qoidalarining tavsifini va saralashning ob'ektiv mezonlarini aniqlab bergen holda rahbarlik lavozimlariga tanlov o'tkazish reglamentini tasdiqlash, tanlov natijalari bo'yicha hozirgi zamon talablariga javob beradigan, zamonaviy fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassislar, hamda xorijiy menejerlarni yollash;
- Jamiyatning Bosh ijrochi direktoriga to'lanadigan pul mukofotlari va (yoki) kompensatsiyalarini, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash, qayd etilgan to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va davlat ulushiga ega boshqa xo'jalik sub'ektlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy qilish to'g'risida"gi 207-sonli Qarorida belgilangan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarining bajarilishiga bog'lash;
- Zaruriyatdan kelib chiqib, Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilaydigan Nizomni tasdiqlash;

- Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda, Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasni Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay tasdiqlanishi kerak;
  - Nomzodlash va mukofotlash qo'mitasining tavsiyasiga asosan Bosh ijrochi direktor o'rnibosarlarini tayinlash;
  - Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek yilning har choragida audit hisobotini tinglash;
  - Bosh risk menejerni tayinlash va risklarni boshqarish choraklik hisobotlarini tinglash;
  - Jamiyat Ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;
  - Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tashqi auditorlarni tayinlash va ular xizmatlariga haqning eng yuqori miqdorini belgilash to'g'risida o'z tavsiyalarini kiritish;
  - Dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi, hamda Jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish;
  - Jamiyat filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
  - Sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish (ular aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etiladi);
  - "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-bobiga muvofiq, balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish. Kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno;
  - "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 9-bobiga muvofiq Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
  - Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish;
  - Jamiyat tomonidan obligasiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligasiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
  - Qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
  - Jamiyat tomonidan chiqarilgan obligasiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
  - Jamiyat ustav fondini (ustav kapitali) oshirish bo'yicha masalalar, shuningdek Jamiyat Ustaviga Jamiyat ustav fondini (ustav kapitali) oshirish va Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari miqdorini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalalarini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilish;
  - Qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligasiyalar) va emissiya risolasini chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash;
  - Qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligasiyalar) va emissiya risolasini chiqarish to'g'risidagi qarorga o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish hamda ularning matnini tasdiqlash;
  - "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (birjaga va birjadan tashqari tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar bozoriga qo'yish) narxlarini belgilash;

- Jamiatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash;
- Qaror qabul qilingan kunda Jamiat sof aktivlarining bir foizidan ortiq miqdorida xayriya (homiylik) yoki tekin yordam berish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiat korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun tanlov asosida mustaqil tashkilotni jalg qilish.

5. Jamiat Kuzatuv kengashi Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalarini amalgalashirish maqsadida quyidagilarni amalgalashiradi:

- Jamiatning boshqaruv organlari, ichki nazorat organlari, Jamiatda tashkil etilgan kollegial organlar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish, zarur hollarda, Jamiatni rivojlantirish rejalarini ishlab chiqishni tashkillashtirish va ularda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringini o'tkazish uchun ekspertlarni jalg qilish;
- Jamiat tashkiliy tuzilmasining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini ko'rib chiqish, joriy qilish va muntazam baholash, shuningdek Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq yillik moliyaviy hisobotlarni e'lon qilishga o'tishni ta'minlash bo'yicha ishlarni o'zaro muvofiqlashtirish;
- Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalari joriy etilishini nazorat qilish.

6. Qonun hujjatlari va Jamiat Ustaviga muvofiq, Jamiat Kuzatuv kengashi vakolatlariga boshqa masalalarni hal qilish ham kiritilishi mumkin.

7. Jamiat Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiat Ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

### **III. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINI SAYLASH, TAYINLASH VA ULARNING VAKOLATLARINI MUDDATDAN OLDIN BEKOR QILISH**

8. Jamiat Kuzatuv kengashi a'zolari Amaldagi qonunchilik va Jamiat Ustavida nazarda tutilgan tartibda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi.

9. Jamiat Kuzatuv kengashining son tarkibi Jamiat Ustavida belgilanadi. Bunda Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari soni 3 kishini tashkil etadi.

10. Jamiat Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga doir mezonlar Jamiat ustavida belgilanadi.

11. Jamiat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan holda qayta saylanishlari mumkin.

12. Jamiat Bosh ijrochi direktori va uning o'rinnbosarlari Jamiat Kuzatuv kengashiga saylanishlari mumkin emas.

13. Jamiatda mehnat shartnomasi (kontrakti) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiat Kuzatuv kengashi a'zolari bo'lislari mumkin emas.

14. Kuzatuv kengashiga saylangan a'zoning vakolatlarini muddatdan oldin tugatish aksiyador o'zgargan, Kuzatuv kengashi a'zosi tomonidan o'z vazifalari buzilgan, Kuzatuv kengashining tegishli arizasi va boshqa asoslар mavjud bo'lgan holatda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha amalgalashiriladi.

15. Jamiat Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash kumulyativ ovoz berish orqali amalgalashiriladi.

16. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiat Kuzatuv kengashiga saylanayotgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador bunday tarzda olingan ovozlarni to'liq bir nomzod uchun berishga yoki ularni ikki va undan ko'proq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir.

17. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan hisoblanadi.

18. Kuzatuv kengashiga nomzodlarga beshtadan ko'p bo'lmanan kuzatuv kengashlarida a'zo bo'lib ishtirok etish cheklovi o'rnatiladi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

19. Davlat organlari xodimlari talab etiladigan malaka darajasiga mos bo'lishi, manfaatlar to'qnashuvi alomatlariga ega bo'lmasligi sharti bilan kuzatuv kengashi a'zoligiga saylanishlari mumkin.

Bunda tartibga soluvchi yoki nazorat (shu jumladan, litsenziyalash organlari va moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiruvchi organlar) funksiyasini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari xodimlarini saylash amaliyoti to'liq bekor qilinadi.

#### **IV. KUZATUV KENGASHI A'ZOLIGIGA NOMZODLARGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI**

20. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zoligiga nomzodlarga quyidagi malaka talablari belgilanadi:

- korporativ boshqaruvchi malaka attestatiga ega bo'lishi (qonunchilik hujjatlariga binoan korporativ boshqaruvchi malaka attestatini olish talab etilmaydigan shaxslar bundan mustasno);
- tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lish (xorijiy va xalqaro o'quv yurtlarida tahsil olganligi to'g'risida sertifikat va diplomlari mavjud nomzodlar qo'llab-quvvatlanadi);
  - uch yil va undan ortiq boshqaruv tajribasiga ega bo'lishi;
  - jamiyat faoliyatiga taaluqli jarayonlarni, bozor va tarmoq faoliyatini chuqr tushunishi;
  - tashkilot va sohalarni strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish tajribasiga ega bo'lishi;
  - operatsion boshqaruv tajribasiga ega bo'lishi;
  - moliyaviy institutlar, potensial investorlar, maslahatchilar va tashkilotlar bilan biznes aloqalar va muzokaralar olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
  - korporativ boshqaruv tamoyillarini tushunishi;
  - rejalashtirish, moliya, audit, inson resurslari, xatarlarni boshqarish, korporativ boshqaruv, rag'batlantirish bo'yicha bir yoki undan ortiq kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi.

#### **V. KUZATUV KENGASHINING RAISI VA UNING O'RINBOSARI**

21. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi va uning o'rinosari Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan Kuzatuv kengashi tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari umumiyl sonidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

22. Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z raisini va uning o'rinosarini Kuzatuv kengashi a'zolari umumiyl sonidan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqlidir.

23. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkillashtiradi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnomma yuritilishini tashkillashtiradi, Aksiyadorlar umumiyl yig'ilishiga raislik qiladi.

24. Kuzatuv kengashi raisi bo'lmanan taqdirda, rais o'rinosari ushbu Nizomda nazarda tutilgan Kuzatuv kengashi raisining barcha vazifalarini cheklovlsiz va to'liq hajmda amalga oshirishga haqli.

#### **VI. KUZATUV KENGASHI MAJLISI**

25. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan uning shaxsiy tashabbusiga ko'ra, Kuzatuv kengashi a'zosi, Bosh ijrochi direktor va Jamiyat ovoz

beruvchi aksiyalarining jami eng kamida bir foizi egalari hisoblangan aksiyadorlar (aksiyador) talabiga asosan chaqiriladi.

26. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan yilning har choragida kamida bir marta chaqiriladi. Majlisda majburiy tartibda quyidagilar ko'rib chiqiladi:

- Ijroiya organining jamiyat yillik biznes-rejasining bajarilishi, jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlar, shuningdek amalga oshirilgan ishlar va jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalarning biznes-rejalari bilan tasdiqlangan samaradorlik ko'rsatkichlariga erishishi, hamda jamiyatning boshqa ichki hujjatlari to'g'risidagi hisoboti;
- Ichki audit xizmatining hisoboti;
- Risklarni boshqarish hisoboti.

27. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolar sonining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

28. Kuzatuv kengashi a'zolari soni Ustavda nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lgan holatda, Jamiyat Kuzatuv kengashi yangi tarkibni saylash uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Bunda Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari mazkur Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilingha, shuningdek Jamiyat Bosh ijrochi direktori vakolatlari muddatdan oldin bekor qilingan holatda uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

29. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida qarorlar majlisda ishtirok etayotganlarning ko'pchilik ovozları bilan qabul qilinadi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalarini hal qilishda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi a'zolari ovozları teng bo'lgan holatda hal qiluvchi ovoz berish huquqiga ega.

Jamiyat ustav fondini (kapitalini) oshirish va Ustavga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi masalalar bo'yicha qaror Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

30. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi tomonidan ovozning Kuzatuv kengashi boshqa a'zosiga yoki uchinchi shaxsga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

31. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida bayonnomma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirilmay tuziladi.

32. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;
- majlisda ishtirok etgan shaxslar;
- majlis kun tartibi;
- ovozga qo'yilgan masalalar, ular bo'yicha ovoz berish yakunları;
- qabul qilingan qarorlar.

33. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisi bayonnomasi Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisi ishtirokchilari tomonidan, shu jumladan, elektron shaklda, imzolanadi. Ular bayonnomma to'g'ri tuzilganligi uchun javobgar bo'ladilar.

34. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisi bayonnomasi imzolangan kunda Jamiyat Bosh ijrochi direktoriga ijro uchun topshiriladi. Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilingan holatda, mazkur

qaror to'g'risida axborot Jamiyat Bosh ijrochi direktoriga Kuzatuv kengashi majlisi o'tkazilgan kunda topshiriladi.

35. Jamiyat Kuzatuv kengashi so'rovnama orqali o'tkazilishi mumkin, Ichki audit xizmati, Risk menejer va Ijroiya organi hisobotlari tinglanadigan majlislar bundan mustasno. Bunda, Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlari Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan sirtqi ovoz berish (so'rovnama) orqali bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

36. Texnik vositalar, Kuzatuv kengashi a'zolarini identifikatsiyalash vositalari va boshqa apparaturalar mavjud bo'lган holatda, Kuzatuv kengashi majlislari video-konferens-aloqa rejimida o'tkazilishi va stenogrammasi yozib olinishi mumkin.

## VII. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING HUQUQLARI VA VAZIFALARI

37. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

- Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan ishtirok etishi, majlisda muhokama qilinadigan masala bo'yicha reglament bilan belgilangan vaqt doirasida so'zga chiqish;
- Kuzatuv kengashi qarori bo'yicha muayyan davr uchun Jamiyat faoliyati, uni rivojlantirish rejalar to'g'risida ma'lumotlar olish;
- Qonun hujjatlarida va jamiyatning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda Kuzatuv kengashida ishlagani uchun mukofot olishi va (yoki) sarflagan xarajatlari qoplanishi mumkin;
- Qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlar;
- Kuzatuv kengashi huzurida Kuzatuv kengashi a'zolari va jalb qilingan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, muayyan soha oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilar tarkibi va boshqalar) orasidan tegishli masalalar bo'yicha qo'mitalarni (ishchi guruhlarini), shu jumladan Audit qo'mitasi, Risklarni boshqarish, hamda Nomzodlik va mukofotlash qo'mitalarini tashkil etish.

38. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi majburiyatlarga ega:

- Mazkur Nizomning IV-bo'lim bandlariga belgilangan malaka talablariga muvofiq bo'lishi;
- benuqson ishslash obro'siga ega bo'lishi;
- oliy ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi;
- mustaqillik va xolislikni namoyon qilishi, hamda aksiyadorning vakili sifatida ishlay olishi;
  - jamiyatning manfaatlariga, barqarorlikka va korporativ mas'uliyatga sodiqligi bilan bog'liq sohalarga shaxsiy sadoqatini ko'rsatishi;
  - kengash muhokamasiga faol ishtirok etish uchun shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi;
  - kengash ishiga o'zini bag'ishlashga tayyor bo'lishi, shuningdek, kengash a'zosi vazifalarini bajarish uchun yetarli vaqtga ega bo'lishi;
  - kengashning boshqa a'zolari bilan yaxshi ish munosabatlarini rivojlantirishi va jamiyatning faoliyatiga yordam bera olishi;
  - jamiyat bilan bitim tuzishda tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali jamiyatni o'z affillanganligi (daxldorligi) to'g'risida xabardor qilish;
  - faoliyatida raqobatchilar, asosiy yetkazib beruvchilar bilan tizimli manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lmasligi va qonun hujjatlarida, hamda jamiyat ustavida nazarda tutilgan boshqa majburiylarni bajarishi kerak.

39. Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat imkoniyatlaridan (mulkiy yoki nomulkiy huquqlardan, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlardan, Jamiyat faoliyati va rejalar to'g'risidagi axborotdan) shaxsiy manfaatlarga foydalanishga haqli emaslar.

40. Kuzatuv kengashining har bir a'zosi o'z vazifalarini bajarishda va kengashning ish natijalari haqidagi axborotlarni boshqarishda tijorat siri va boshqa qonunchilikka muvofiq axborotlarning xavfsizligi va konfidensialligini ta'minlashga (qaratilgan talablarga) to'liq (qat'iy) rioya etishi lozim (shart).

41. Kuzatuv Kengashi a'zolari o'z faoliyatida har qanday munosabat va bitimlarda yoki "O'zIQMK" Ajga nisbatan manfaatlari to'qnashuvi masalasida har qanday qiziqish to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyatini oladi.

42. Kuzatuv kengashi a'zolari faoliyatini baholash. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari yilda bir marta "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi faoliyatini baholash to'g'risida"gi Nizomga asosan baholanadi.

### **VIII. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI**

43. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlari doirasida harakat qilishlari kerak, hamda qonun hujjatlariga va Jamiyat Ustaviga muvofiq Jamiyat oldida mas'ul bo'ladilar.

44. Bir necha shaxslar majburiyat olgan taqdirda, ularning Jamiyat oldidagi majburiyati solidar hisoblanadi.

45. Jamiyatga zarar yetkazilishiga olib kelgan qaror uchun ovoz berishda ishtirok etmagan yoki bunday qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydilar, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 90-moddasida belgilangan holatlar bundan mustasno.

46. Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarining jami bir foizidan ko'prog'iga ega Jamiyat yoki aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga yetkazilgan zararlar o'rnini qoplash to'g'risida Kuzatuv kengashi a'zosiga nisbatan da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

### **IX. YAKUNIY QOIDALAR**

47. Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar boshqarmasi (bo'limi) yoki qimmatli qog'ozlar bo'yicha mutaxassis yoxud Korporativ maslahatchi Kuzatuv kengashi a'zolarini kerakli materiallar bilan ta'minlash, shuningdek aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro aloqa uchun mas'ul hisoblanadi.

48. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

49. Mazkur Nizomning ayrim moddalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid kelgan holatda, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu moddalar bilan tartibga solinadigan masalalar yuzasidan mazkur Nizomga tegishli o'zgartishlar kiritilgan paytgacha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va/yoki Jamiyat Ustavi normalariga amal qilish kerak.

50. Mazkur Nizom kuchga kirishi bilan "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" Ajning 2020 yil 25 maydagi, 2021 yil 18 iyundagi, 2022 yil 29 iyundagi va 2023 yil 27 maydagi Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" Ajning Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom va unga kiritilgan barcha o'zgartirishlar o'z kuchini yo'qotadi.